

**MAKTAB BITIRUVCHILARINI KELGUSIDA KASB-HUNARGA
YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****Ishimov Faxriddin Mamarejabovich***Surxondaryo viloyati Jarqo 'rg'on
tumani 64-maktab psixologi*

Annotatsiya: mazkur maqolada kasblarni tuzilishi va kasb tanlashdagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, kasbni sevish, kasbga jalb etish, kasb tanlash muammolari, ijobiy yechim, ota-ona ko'magi, pedagogik-psixologik tavsiyalar, maktab bitiruvchisi.

Ma'lumki, o'quvchilarning yetuk, barkamol bo'lib yetishishi uchun to'g'ri kasb tanlay bilishlari zarur. Holbuki, bugungi kunda yoshlar orasida dolzarb muammolardan biri ham, o'quvchilarning to'g'ri kasb tanlay olmasliklari sabab bo'lmoqda. To'g'ri kasb tanlashlari uchun esa, maktabning kasb-hunarga yo'naltiruvchi psixologlarning xissasi juda katta. O'quvchilarning kasbiy qiziqishi, qobiliyati hamda sog'ligi holatlarini e'tiborga olishlari, bugungi zamon mehnat bozoridagi talablarning rivojlanishida talab va ehtiyoj kuchli kasblar va mutaxassisliklar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlash lozim. Bugungi kunda o'quvchilarning to'g'ri kasb tanlashlari uchun ularning qiziqishlari, layoqat va qobiliyatlarini tashxis qilish metodikalari asosida aniqlab, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq. O'quvchining kasbiy orzu va xohishlarini ularning qiziqishlari layoqatlari, moyilliklari va imkoniyatlarini o'rganish uchun maktabning kasb-hunarga yo'naltiruvchisi psixologi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltiruvchi Respublika tashxis markazi tomonidan ishlab chiqilgan turli xil tashxis metodikalaridan foydalanishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini o'rganishda, asosan maktablarning bitiruvchi sinflarida olib borilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, qo'yilgan tashxis ishlarini asosiy bosqichlarini ko'rsatib beradi. Hozirgi zamon o'quvchilarda ta'lim-tarbiyani qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim sifatiga e'tiborni kuchaytirilganligi, kadrlarga bo'lgan talablarni ham takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa bugungi kunda o'quvchilarni kasbiy layoqatini diagnostik tashxis qilishning ro'li yanada ortib borishiga turtki bo'ldi. Mamlakatimizning barcha tumanlarida kasb-hunarga yo'naltirish va diagnostik tashxis markazlarida olib borilayotgan ishlarning o'zi fikrimiz isbotidir. Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirish tizimining asosiy vazifasi o'quvchilarning qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyat va imkoniyatlarini

to'g'ri diagnostik tashxis qilib, kasb-hunar maktablari, akademik litsey yoki kasb-hunar kollej va texnikum hamda oliy ta'lim muassasalarida kasb-hunar sohasini ongli va to'g'ri tanlashga ilmiy asoslangan to'laqonli maslahatlarni berishdir. Bu maslahatlar tavsiya bo'lib, haqiqiy tanlashni esa o'quvchining o'zi amalga oshiradi. Bu tanlash to'g'ri bo'lishi uchun bitiruvchilardan yil davomida maktab psixologi tomonidan test metodikalari o'tkaziladi. Bu metodikalar orqali bolani qaysi kasbga bo'lgan qiziqishi, munosabati aniqlanadi. Ularni to'g'ri yo'naltirish imkoni yaratiladi. "Differensial diagnostik so'rovnoma", "Bo'lajak kasb tipini aniqlash" metodikasi, "Ayzenk so'rovnomasi", "Qiziqishlar xaritasi" kabi psixologik-pedagogik so'rovnoma va test savollariga javoblar natijalarining tahlili asosida o'quvchilarning kasbiy layoqatlari aniqlanib, kasbga yo'naltirish tadbirlari tashkil etiladi. Bu kabi metodikalar yordamida o'quvchilarning kasbiy layoqati va qobiliyatlarini aniqlanadi. Natijalar asosida ularni kasbga yo'naltirish ishlari tashkil etiladi.

Bizga ma'lumki, maktab bitiruvchilarida o'zini-o'zi anglashi kasbiy yo'nalganligini shakllantirish bevosita ularning kelgusi faoliyati sohasini tanlash bilan bog'liq bo'ladi. Psixologiyada sub'ektning kasbiy yo'nalganligini uch bosqichda amalga oshirishi mumkinligi ta'kidlangan:

- kasb tanlashga yordam berish
- tanlagan mutaxassisligiga zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni shakllantirish
- o'zini-o'zi rivojlantirishiga intilishi faol hayotiy pozitsiyada turishi
- o'quvchilarning kelajakda o'z orzu –maqsad, rejalarini tuzishi

Psixolog olimlarning fikrlariga ko'ra, inson o'zining imkoniyat chegaralarini bilishi va anglab yetishi bilangina cheklanib qolmasdan, o'z imkoniyatlarini to'la-to'kis amalga oshirishlari zarur ekan. O'quvchilarni kasbga yo'nalganligini aniqlashlariga yordam beruvchi bu atrofidagi odamlar hisoblanadilar. Bitiruvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha targ'ibot va tashfiqot ishlarini tashkil qilishda, maktabning kasb-hunarga yo'naltiruvchi psixologlarining kasb-hunarga yo'naltirish borasida kasbiy maslahat va kasbiy trening olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ochiq eshiklar kuni, uyushtirilgan ekskursiyalar, o'quvchilarda ma'lum bir ichki motivni keltirib chiqaradi. Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda ularning his-tuyg'u va sezgilariga ta'sir qiluvchi quyidagi usullardan foydanilish maqsadga muvofiqdir.

- ta'sir etish
- ishontirish
- ruhlantirish

O'quvchilarni kasb tanlashiga ta'sir qiluvchi omillar ham maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi psixologi tomonidan olib borilgan targ'ibot-tashfiqot ishlariga bog'liqdir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabning kasb-hunarga

yo'naltiruvchi psixologlarining bugungi kunda bitiruvchi yoshlarni to'g'ri kasb tanlay olishlarini tashkil qilishdagi vazifasi muhim o'rin tutadi. Mustaqil O'zbekistonimizning poydevori bo'lgan yoshlar, davlatimiz ravnaqiga xissa qo'shib, o'z kasblarining mohir kishilari bo'lib yetishishlari orqali ham o'z hissalarini qo'shadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Allaberganov A. "Kasb etikasi". – Toshkent, 2017-
2. Yusupova D. [Auditorning kasb etikasi](#)". – Toshkent:, 2022.
3. N.A. ARIPOVA, . "KASBIY PSIXOLOGIYA". – Toshkent:, 2018
4. Avazboyev A [Kasbiy pedagogika](#) Toshkent:, 2014
5. M.R.Xudoyberdiyeva [Kasb mahorati](#) Toshkent:, 2010
6. Internet manbalari:
www.psychology.uz